

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM ETIKASINING O'RNI

Toxirova Munisa Ravshan qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Turizm fakulteti talabasi.

takhirovamunisa@icloud.com

ORCID:0009-0004-6648-6303

Baltaboyev Xudashukur Ruslanbek o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Turizm fakulteti talabasi.

x.ruslanbekovich@gmail.com

ORCID:0009-0009-6276-0818

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15320818>

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm etikasi tushunchasi, uning asosiy tamoyillari va amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Turizm etikasi — bu sayyoohlar, xizmat ko'rsatuvchilar, mahalliy aholi va ekologik muhit o'rtaсидаги axloqiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar majmui bo'lib, u o'zaro hurmat, mas'uliyat, halollik, madaniyatlararo muloqot va adolat prinsiplariga asoslanadi. Maqolada turizmda etik qadriyatlarning sayyoohlar va mezbonlar o'rtaсидаги ijobiy munosabatlarga, xizmat sifati va mamlakatning xalqaro imijiga ta'siri alohida ta'kidlangan.

Ushbu maqolada muallif tomonidan tarixiy va madaniy meros ob'ektlariga nisbatan ehtiyyotkorlik, ekologik barqarorlikka e'tibor, xizmat ko'rsatishdagi madaniyat va mehmondo'stlik kabi omillar barqaror turizm asosini tashkil etuvchi mezonlar sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, etika va barqaror rivojlanish o'rtaсидаги bog'liqlik, yosh avlodni etik ong asosida tarbiyalash, ta'lim tizimiga etik me'yorlarni kiritish zaruriyati ham tahlil etilgan.

Maqola natijasida, turizmda etik yondashuv nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ham rivojlanishning muhim omili ekanligi xulosa sifatida ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Etik tamoyillar, Sayyoohlik madaniyati, Barqaror turizm, Xizmat sifati, Madaniyatlararo muloqot, Ijtimoiy mas'uliyat.

МЕСТО ТУРИСТИЧЕСКОЙ ЭТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В данной статье широко освещено понятие этики туризма, его основные принципы и практическое значение. Этика туризма — это совокупность норм, регулирующих этические отношения между туристами, поставщиками услуг, местным населением и экологической средой. Она основывается на принципах взаимного уважения, ответственности, честности, межкультурного диалога и справедливости.

В статье особо подчеркивается влияние этических ценностей в туризме на позитивные отношения между туристами и хозяевами, на качество услуг и на международный имидж страны.

В данной статье автором указаны такие факторы, как бережное отношение к объектам исторического и культурного наследия, внимание к экологической устойчивости, культура обслуживания и гостеприимство, как критерии, составляющие основу устойчивого туризма. Также проанализирована связь между этикой и устойчивым развитием, необходимость воспитания молодого поколения на основе этического сознания, а также включение этических норм в систему образования. В результате статьи делается вывод о том, что этический подход в туризме является важным фактором развития не только с моральной, но и с социальной, экономической и культурной точек зрения.

Ключевые слова: Этические принципы, Туристическая культура, Устойчивый туризм, Качество услуг, Межкультурный диалог, Социальная ответственность.

THE PLACE OF TOURISM ETHICS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract. This article widely covers the concept of tourism ethics, its basic principles, and practical significance. Tourism ethics is a set of norms that regulate ethical relations between tourists, service providers, the local population, and the ecological environment. It is based on the principles of mutual respect, responsibility, honesty, intercultural dialogue, and fairness. The article particularly emphasizes the impact of ethical values in tourism on positive relations between tourists and hosts, on the quality of services, and on the country's international image.

In this article, the author highlights factors such as careful treatment of historical and cultural heritage sites, attention to environmental sustainability, service culture, and hospitality as criteria that form the basis of sustainable tourism. The connection between ethics and sustainable development, the necessity of educating the younger generation based on ethical consciousness, and the inclusion of ethical norms in the education system are also analyzed. As a result of the article, it is concluded that an ethical approach in tourism is an important factor for development not only from a moral perspective but also from social, economic, and cultural viewpoints.

Keywords: Ethical principles, Tourism culture, Sustainable tourism, Service quality, Intercultural dialogue, Social responsibility.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining deyarli barcha jabhalarida axloqiy me'yorlar va qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, turizm sohasida bu jihat alohida dolzarblik kasb etmoqda, chunki sayyohlik jarayonida turli millat, din, madaniyat va qadriyat vakillari o'zaro muloqotda bo'ladi.

Xususan, O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish, uning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, sayyohlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jarayonda etik tamoyillar va axloqiy me'yorlarning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu tushuncha turizm xizmatlari sifati, mehmondo'stlik madaniyati, professional munosabat va madaniyatlararo muloqot asoslarini belgilaydi. Shu sababli, turizmda etik tamoyillarni chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish sohaning barqarorligi va insoniy munosabatlardan sifatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Etika atamasi qadimgi yunoncha "ethos" (εθος) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z dastlab "odamning odati, yashash tarzi yoki xarakteri" degan ma'noni bildirgan. Bu tushuncha qadimgi Yunonistonda kishilarning jamiyatdagi o'zini tutishi, muomala madaniyati va ijtimoiy xulq-atvorini ifodalagan. (Qodirov, 2020) Etika fani sifatida birinchi bo'lib yunon faylasufi Aristotel tomonidan sistematik shaklda ishlab chiqilgan. U o'zining "Nikomax etikasi" asarida axloqiy fazilatlar, o'rtacha yo'l va odil xatti-harakatlar haqida bayon qilgan. (Aristotle, 2000)

Shuningdek, Lotin tilida bu tushunchaga mos keluvchi so'zlar "mos" va "mores" bo'lib, ular ham fe'l-atvor, odat va jamiyatdagi axloqiy normalarni bildirgan. Shu so'zdan "moralitas" (U., 2018) ya'ni, axloqiylik atamasi shakllangan va bu orqali jamiyatda odob-axloq qoidalarining shakllanishiga asos bo'lgan. Etika va axloq tushunchalari ko'p hollarda sinonim sifatida qo'llanilsada, ularning mohiyatidagi nazariy va amaliy farqlar mavjud bo'lib, etika ko'proq nazariy mezonlarni, axloq esa kundalik hayotdagi odob me'yorlarini anglatadi.

Bugungi global va madaniy jihatdan rang-barang turizm makonida etik qadriyatlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Turizmda ishtirok etuvchi barcha tomonlar — sayyohlar, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar, mahalliy aholi va davlat muassasalari — o'zaro hurmat, madaniyatlararo bag'rikenglik, mas'uliyat va halollik kabi tamoyillar asosida harakat qilishi lozim. Shu jihatdan turizm etikasi — bu nafaqat kasbiy me'yorlar majmui, balki insoniy qadriyatlar tizimidir.

O'zbekistonning ko'p asrlik tarixiy-madaniy merosi, boy madaniyati va mehmondo'st xalqi mamlakat turizm salohiyatining asosiy ustunlaridan biri sanaladi.

Biroq bu salohiyatni to‘liq namoyon qilish uchun nafaqat infrastrukturaviy rivojlanish, balki xizmat ko‘rsatish madaniyati va undagi etik yondashuvlar ham muhim rol o‘ynaydi.

Xususan, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining kasbiy etikasi, sayyoohlarga nisbatan hurmatli va xolis munosabati, madaniyatlararo muloqotda bag‘rikenglik prinsiplariga rioya qilishi xorijiy mehmonlarda mamlakatga nisbatan ijobiy taassurot uyg‘otadi.

Ushbu maqolada O‘zbekiston turizmida etik qadriyatlarning o‘rni, ularning amaliyotdagi aks etishi, shuningdek, xizmat ko‘rsatish jarayonida axloqiy me’yorlarga amal qilishning dolzarbliги tahlil qilinadi. Maqola turizm xizmatlarida etik tamoyillarning amaliy qo‘llanilishi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini ham ko‘rsatib berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmda axloqiy qadriyatlар masalasiga oid turli manbalar o‘rganilgan. Ushbu tahlilda xalqaro tashkilotlarning axloqiy kodekslari, jumladan, BMTning Turizmni Rivojlantirish Bo‘yicha Jahon Tashkiloti (UNWTO)ning axloqiy qoidalari, shuningdek, UNESCOning madaniy merosni saqlashga oid tavsiyalari o‘rganildi. Bu manbalar turizmda axloqiy tamoyillarni joriy etish uchun muhim yo‘l-yo‘riqlarni taklif etadi.

O‘zbekistonning turizm sohasi bo‘yicha qonunchilik normativlari ham o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasining turizmni rivojlantirishga oid qonunlari, xususan, "Sayyoqlik faoliyati to‘g‘risida"gi qonuni, va turizm xizmatlarini tashkil etishda e’tibor qilinishi kerak bo‘lgan asosiy axloqiy talablarni belgilovchi me’yorlar tahlil qilindi. Ammo, bu qonunchilik tizimi hali to‘liq amalga oshirilmayapti va ba’zi axloqiy masalalar o‘z vaqtida hal etilmayapti. Shu bilan birga, O‘zbekiston olimlarining turizm etikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlari ham muhim ahamiyatga ega. Qodirov I. (2020), Yo‘ldoshev H. (2022) va Normurodov D. (2019)larning ishlarida turizmda axloqiy qadriyatlар va madaniyatning muhimligi va uni rivojlantirishning zarurligi ta’kidlangan.

O‘zbekistondagi turizmda etik qadriyatlар masalasida dunyo faylasuflarining fikrlarini qo‘llash ham foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, Aristotelning axloqiy qadriyatlар nazariyasi va Kantning etik tamoyillari turizmda axloqiy yondashuvlarni takomillashtirishda yordam berishi mumkin.

METODOLOGIYA

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda kompleks tahliliy yondashuv asos qilib olindi.

Tadqiqot davomida sifatli kontent tahlili, hujjatlar asosidagi solishtirma tahlil, mavjud statistik ma'lumotlarni sharhlash va ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Ayniqsa, turizm sohasiga oid xalqaro va milliy huquqiy-me'yoriy hujjatlar — jumladan, BMT Jahon Turizm Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Global Turizm Etik Kodeksi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4095-sonli qarori, “Etik turizm kodeksi” loyihasi va O‘z DSt ISO 13810:2023 standarti asosiy manba sifatida o‘rganildi.

Tadqiqot jarayonida turizmda etik qadriyatlarning roli va ahamiyatini yoritishda mantiqiy tahlil, induktiv-deduktiv xulosalash hamda normativ-huquqiy asoslarning amaliyotdagi ifodasi tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston turizm tizimida etik tamoyillarning joriy etilish darajasi va bu tamoyillarning xizmat sifati, mehmondo‘slik madaniyati va xalqaro imijga ta’siri zamonaviy statistik ko‘rsatkichlar asosida baholandi.

Mazkur metodik yondashuv maqolada ilgari surilgan xulosalar va tavsiyalarni asoslash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishda xizmat qildi.

ASOSIY QISM

Turizm etikasi deganda sayyoohlar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, mahalliy aholi va ekologik muhit o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni tartibga soluvchi tamoyillar tushuniladi. Bu sohada hurmat, mas’uliyat, halollik va adolat kabi axloqiy mezonlar muhim o‘rin tutadi.

Sayyoohlar mahalliy urf-odat va qadriyatlarga hurmat bilan qarashlari kerak, xuddi shuningdek, xizmat ko‘rsatuvchilar ham sayyoohlarning huquqlarini hurmat qilishga mas’ul. (N., 2021) Sayyoohlarning o‘zini tutishi va xatti-harakatlari ularning kelib chiqishi hamda millati haqidagi tasavvurlarni ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgartirishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, turli xil stereotiplarning shakllanishiga zamin yaratadi. Xuddi shunday holat mezbonlarga ham taalluqli bo‘lib, tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning ijobiy yoki salbiy tus olishi har ikki tarafning o‘zaro muomalasi va madaniy xatti-harakatlariga bevosita bog‘liqdir.

Turizmnинг barqarorligi ekologik va madaniy merosni saqlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu ham etik tamoyillar doirasiga kiradi. (R., 2019)


UNWTO tomonidan ishlab chiqilgan Global Code of Ethics for Tourism hujjatida turizm ishtirokchilari uchun etik qoidalar va javobgarlik mezonlari aniq belgilangan. (UNWTO, 2001)

Turizm sohasida etik qadriyatlар insoniy munosabatlар, madaniyatlararo aloqa va xizmatlar sifati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ya’ni, sayyoohlarning axloq-odob darajasi, etik qadriyatlari va umumiy munosabati xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmat sifati va darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agar turistlarning etik qadriyatlari mezbon mamlakatda faoliyat yuritayotgan xodimlarning qadriyatlariga mos tushsa, xizmat sifati odatdagidan ham yuqori bo‘lishi ehtimoli ortadi. Shubhasiz, bu jarayonning muvaffaqiyati faqat sayyohlargagina emas, balki xizmat ko‘rsatuvchi tomonning professionalligi, madaniyati va qadriyatlariga ham bog‘liqdir. Faqat etik qadriyatlargina emas, balki umumiy insoniy qadriyatlar — o‘zaro hurmat, xizmatni qadrlash va madaniy muomala — ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, barcha sohalarda xalqaro standartlarga mos ish yuritish muhim bo‘lib, bu ikki tomon uchun ham qulay, yoqimli va samarali muhit yaratadi. O‘zbekistonning tarixiy shaharlariga — jumladan, Samarqand, Buxoro va Xivaga tashrif buyurgan sayyoohlar mahalliy aholining mehmondo‘sligi, madaniyati va xulq-atvoridan iliq taassurotlar oladilar. Chunki ushbu hudud aholisi o‘ta mehmondo‘s, xushmuomala va mehnatsevar bo‘lib, bu fazilatlar e’tirofga loyiqidir. Tarixan, Buyuk Ipak yo‘li aynan shu mintaqalardan o‘tgan, xususan, Buxoro shahri uzoq yillar davomida madaniy va iqtisodiy markaz sifatida alohida o‘rin egallagan. (I., n.d.) Bu holat o‘z navbatida hudud tuprog‘iga, xalqning mentaliteti va qadriyatlariga chuqr singib, avlodlar ongida ham o‘z aksini topgan. Shu jihatdan, bu fazilatlar zamonlar osha davom etib, bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Bu ijobjiy munosabatlarning asosi aynan turizm etikasi prinsiplariga borib taqaladi.

2019-yil 5-yanvarda Prezident tomonidan qabul qilingan PQ-4095-sonli qarorda turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, unda xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish hamda turizm xodimlarining axloqiy salohiyatini yuksaltirish masalalari alohida ta’kidlangan. (Turizm sohasini jadallik bilan rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 2019) Bunday chora-tadbirlar orqali sayyoohlar uchun yanada qulay, xavfsiz va mazmunli sayohat sharoitlarini yaratish mumkin. Natijada, bu holat o‘z-o‘zidan turistik oqimning ortishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi, mamlakatning turizm salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

2020–2024-yillar orasida sayyoohlar soni barqaror oshgan bo‘lsa-da, xizmat sifati reytingi deyarli o‘zgarmagan. Bu esa xizmat ko‘rsatish sohasida sifatiy yondashuv va etik tamoyillarga amal qilishda muammolar borligini ko‘rsatadi. Turizmda axloqiy me’yorlarga qat’iy rioya qilish xizmat sifati va sayyoohlar mammunligini oshirishda muhim omil bo‘lib qolmoqda.




(Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2025) (1-statistika) **2020-2024-yillar davomida sayyoohlar soni va xizmat sifati**

Shuningdek, 2021-yilda Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Etik turizm kodeksi" loyihasida mehmonxona, gidlik, transport va boshqa xizmat tarmoqlarida axloqiy normalarni qo'llash taklif etilgan. (vazirligi, 2021) Bu hujjat, asosan, xizmat ko'rsatishda odob, hurmat va madaniy muomala tamoyillarini belgilab beradi. Turistlarni chuqur o'rganish, ularning xulq-atvori va madaniyatini anglash orqali ko'rsatilayotgan xizmat sifati sezilarli darajada oshirilishi mumkin. Mehmonlarning ehtiyojlari, urf-odatlari hamda madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda xizmat ko'rsatish, ularning qoniqish darajasini oshiradi va turizm sohasida yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Etika, ayni vaqtida, barqaror turizmnинг ajralmas qismidir. U nafaqat odamlar o'rtasidagi muomala madaniyatini, balki ekologik, ijtimoiy va madaniy muvozanatni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, tarixiy yodgorliklarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, chiqindi tashlamaslik, diniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashish — bularning barchasi turizm etikasi mezonlariga kiradi. Turizm etikasi mezonlariga rioya etish orqali sayohat jarayonini yanada mazmunli, yoqimli va qulay tarzda tashkil etish mumkin. Etik me'yorlarga amal qilish nafaqat sayyoohlar uchun, balki mezbon jamiyat vakillari uchun ham o'zaro hurmat va tushunishga asoslangan ijobiy muhit yaratishga xizmat qiladi.

Turizmga oid adabiyotlarda axloqiy nazariyalar, hayvonlar farovonligi, turli xil dunyo qarashlari, iqlim o'zgarishi va yanada axloqiy va barqaror kelajak uchun ijtimoiy harakatlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim. (Jamol, 2019) Turizm etikasining shakllanishi chuqur falsafiy tamoyillar va axloqiy qarashlarga borib taqaladi.

Bu yo‘nalishga amaliy etika, barqaror rivojlanish prinsiplari hamda hayvonlar huquqlari bilan bog‘liq axloqiy yondashuvlar kiradi. Ana shu nazariy asoslar yordamida turizm sohasida yuzaga keladigan axloqiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati tug‘iladi.



Shu bilan birga, nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi tafovutga e’tibor qaratilib, ushbu nazariyalarni turizm sohasidagi ta’lim jarayonlariga integratsiya qilishning dolzarbliги alohida ta’kidlanadi. O‘zbekiston ichki turizmi kengayib borayotgan hozirgi sharoitda etik madaniyatni mustahkamlash yanada dolzarbdir. Bu xizmat ko‘rsatishdagi odob-axloq, transport vositalarining tozaligi va turistik ob’ektlarda belgilangan tartib-qoidalar bilan chambarchas bog‘liq. Etik me’yorlarga rioya qilinmasligi esa sayyoohlarning salbiy taassurotlariga olib kelishi mumkin.

Turizmda axloqiy qadriyatlar nafaqat xizmat ko‘rsatish darajasini, balki mamlakatning xalqaro imijini belgilaydi. Oxirgi yillarda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlар shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyoohlarning aksariyati o‘zlarini qadrlangan mehmon sifatida his qilganini bildirgan. Bu esa ularning mamlakatga qayta tashrif buyurish istagini


va tavsiyalar orqali yangi turistlar jalb etish imkoniyatini kuchaytiradi. Shu boisdan, turizmda etik yondashuvga amal qilish nafaqat axloqiy talab, balki raqobatbardoshlik omilidir.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasi moddiy infratuzilmalar bilan bir qatorda, axloqiy asoslar ustida qurilishi zarur. Mamlakatda turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy hayotga ta’sir ko‘rsatadigan muhim vosita sifatida qaraladi.

Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistonga 6,6 milliondan ortiq chet ellik sayyoh tashrif buyurgan bo‘lib, bu raqam 2022-yilga nisbatan ancha o‘sishni ko‘rsatadi. (Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2023)

2-statistika. O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyoohlolar soni

Sayyoohlarning mamlakatda qolish muddati ham uzaygan, bu esa xizmatlar sifati va etik munosabatlarning yuqori darajada ekanini anglatadi. Sayyoohlolar o'zlariga hurmat va e'tibor ko'rsatilganini sezganlarida, ular nafaqat qayta kelishga, balki boshqalarga ham tavsiya qilishga moyil bo'ladilar.




3-statistika. 2022-2023-yillarda sayyoohlarning O'zbekistonda o'rtacha qolish muddati (Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2023)

2023-yilda qabul qilingan O'z DSt ISO 13810:2023 standartida turistik xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun axloqiy me'yorlar aniq belgilab berilgan. (qo'mitasi, 2023) Ushbu me'yorlar xalqaro standartlarga moslashtirilgan bo'lib, ularning asosiy yo'nalishlari — madaniy hurmat, inson sha'niga e'tibor va ekologik barqarorlikdir.

Turizm etikasining mazmuni turli manfaatdor tomonlar — ya'ni sayyoohlolar, turizm sohasi vakillari va mahalliy aholining o'zaro hamkorligiga asoslanadi hamda ularning har biri tomonidan ijtimoiy mas'uliyatni anglash va atrof-muhitga ehtiyyotkor munosabatda bo'lishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi.

Xususan, turizm bo'yicha o'quv dasturlariga axloqiy me'yorlar, ekologik ong va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq dolzarb bilimlarni kiritish zarur hisoblanadi. Buning natijasida nafaqat ekologik barqarorlik, balki ijtimoiy tenglik vaadolat tamoyillari haqida ham yosh avlodda xabardorlikni shakllantirish mumkin bo'ladi. Bu esa, kelajak avlod sayyoohlarning va turizm sohasi mutaxassislarining mas'uliyatlari, ongli qarorlar qabul qilishiga zamin yaratadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sayyoohlар ko'proq 2023-yilda qo'shni davlatlar, Tojikiston, Qирг'изистон, Qозог'истон, Rossiya dan tashrif buyurgan.



3-statistika. 2023-yilda O'zbekistonga kelgan asosiy sayyoohlар soni

(Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2023)

O'zbekistonga kelayotgan sayyoohlarning katta qismini qo'shni davlatlar fuqarolari tashkil etsa-da, Yevropa mamlakatlaridan ham tashriflar ortib bormoqda. Bu esa turizmda madaniy xilma-xillikni inobatga olgan holda etik yondashuvlarni kuchaytirishni talab qiladi. Har bir sayyoohning diniy, milliy va madaniy qadriyatlariga ehtirom bilan yondashish turizm etikasi talablarining ajralmas qismidir.

NATIJA

Turizmda axloqiy qadriyatlarni o'rghanish natijalari shuni ko'rsatadiki:

Axloqiy tamoyillarni tatbiq qilishda to'siqlar mavjud: O'zbekiston turizm sohasida axloqiy qadriyatlarning amaliyotga joriy etilishi to'liq amalga oshirilmagan. Xizmat ko'rsatishdagi axloqiy me'yorlar va mehmonlarga nisbatan munosabat hali ideal holatga yetmagan.

Axloqiy kodekslar yo'qligi: Turizmda axloqiy kodekslar va tamoyillarni qo'llashda muammolar mavjud. Bu esa, xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar va turistlar o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Milliy va xalqaro qadriyatlarni uyg‘unlashtirish: O‘zbekistonning turizm sohasida milliy qadriyatlarni jahon talablari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan harakatlar mavjud, ammo hali to‘liq amalga oshirilmagan.

Sifatli xizmat ko‘rsatish: Xizmat ko‘rsatish sohasida axloqiy tamoyillarni kuchaytirish, mehmonlarga hurmat va ularning huquqlarini ta’minlash zarur.

Malaka oshirish va ta’lim: Turizm xodimlarini axloqiy qadriyatlar bo‘yicha ta’limlash va malakasini oshirish zarur. Bu, ularning sifatli xizmat ko‘rsatishiga va axloqiy tamoyillarga rioya qilishiga yordam beradi.

TAKLIFLAR

O‘zbekiston turizmida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhimdir:

1. Etik kodeksning joriy etilishi: Turizmda axloqiy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus etik kodeks ishlab chiqilishi zarur. Bu kodeksda mehmonlarga hurmat, axloqiy xizmat ko‘rsatish tamoyillari mustahkamlangan bo‘lishi kerak.
2. Qonunchilikni mustahkamlash: O‘zbekistonda turizm sohasida mavjud qonunlar va reglamentlarni kuchaytirish, amaliyotda ularni samarali qo‘llash muhim ahamiyatga ega.
3. Xodimlarni malakasini oshirish: Turizm xodimlarining axloqiy savodxonligini oshirish uchun o‘quv dasturlari va treninglar tashkil etilishi lozim.
4. Milliy qadriyatlarni rivojlantirish: O‘zbekiston turizmida milliy an‘analar va qadriyatlarni rivojlantirish, bu orqali mamlakatning xalqaro turistik imidjini yaxshilash zarur.
5. Agar yuqoridagi choralar amalga oshirilsa, O‘zbekiston turizm sohasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

XULOSA

Maqolada O‘zbekistonda turizm etikasining ahamiyati, uning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Turistik faoliyatda axloqiy tamoyillarning, xususan mehmonnavozlik, madaniyatga hurmat va halollik kabi qadriyatlarning roli ochib berildi. Shuningdek, mavjud qonunchilik asosida turizmda etik me’yorlarga amal qilish tartiblari ko‘rib chiqildi. Olingan tahlillar asosida aytish mumkinki, etikaga asoslangan turizm nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki mamlakat obro‘sini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Kelgusida bu yo‘nalishda ilmiy yondashuv, xodimlar malakasi va axloqiy madaniyatni oshirish zarur.

REFERENCES

1. Aristotle. (2000). Nicomachean Ethics. *cambridge university press*.
2. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. (2023).
3. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. (2025).
4. I., N. A. (n.d.). Retrieved from Wikipedia:
https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Buxoro#cite_ref-4
5. Jamol, T. (2019). Turizm etikasi: Istiqbolli maqola. *Tourism Review*, 221-224.
6. N., X. (2021). Turizmda xizmat ko‘rsatish madaniyati va etika. Toshkent: Iqtisodiyot.
7. qo‘mitasi, O. R. (2023). Xizmat sifati bo‘yicha yo‘riqnomalar. Toshkent , O‘zbekiston.
8. Qodirov, M. (2020). In *Etika va estetik tarbiya asoslari* (pp. 14-15). Samarqand: SamDU.
9. R., T. M. (2019). *Barqaror turizm asoslari*. Toshkent:: Toshkent: Fan va texnologiya.
10. Turizm sohasini jadallik bilan rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, PQ-4095-sonli qarori (prezidant yanvar 5, 2019).
11. U., B. (2018). *Etika: nazariya va amaliyot*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
12. UNWTO. (2001). Global Code of Ethics for Tourism. *World Tourism Organization*.
13. vazirligi, O. R. (2021). “Etik turizm kodeksi”. o‘zbekiston.